

MAXSUS PEDAGOGIKA

Xojiboyeva Dinora Bahtiyor qizi

*Toshkent kimyo xalqaro universiteti Maxsus
pedagogika yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

Anatatsiya: *Ushbu maqolada Maxsus pedagogiya fani va uning yo'nalishlari va maxsus pedagogikaga chuqurroq kirilishi hamda bu yo'nalishni mukammal o'rganilishi, har xil kasalliklar bilan kasallagan odamlarga diagnozlar qo'yilishi, aqli zaiflar ko'zi ojizlar va eshitishida nuqsoni borlar, nutqida nuqsoni borlar bilan qanday karreksion ishlar olib borilishi haqida.*

Tayanch atamalar: *Maxsus pedagogika, aqli zaiflik, ko'zi ojizlik, nuqson, karreksion, ruhiy, klinik, tiflopedagogika logopediya, surdopedagogika, debil, imbetsiol, idiotizm, xromosoma, genetik, irsiy, meniggid, ensifalit, konkret, predmet, anamaliya, parez.*

KIRISH

Maxsus pedagogika ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan. Maxsus pedagogika jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos o'quv ta'lim faoliyatlarini hisobga olgan holda pedagogikaning umumiy tamoyillari asosida rivojlanadi. Maxsus pedagogikaning bosh vazifasi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tarbiyasini tashkil etishning ilmiy va nazariy asoslarini yaratish hamda shunga mos defektolog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Maxsus pedagogika, shuningdek, bolalarni psixik pedagogik va klinik jihatdan o'rganish, nuqson sabablarini aniqlash, pedagogik tasniflash va turlarga ajratish, maxsus ta'lim va tarbiya muassasalari sharoitida bolalarga individual muomala qilish, nuqsonli bolalarni jismoniy mehnatga tayyorlash kabi masalalarni ishlab chiqishdan iborat. Maxsus pedagogika qanday nuqsondagi bolalarni o'rganishiga qarab, surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya kabi sohalarga bo'linadi. Bularning har biri umumiy pedagogika tarmog'ini va barchasi birgalikda defektologiyani tashkil etadi. Maxsus pedagogika yo'nalishini mukammal o'rganadigan bo'lsak, bu yo'nalishda Oligofreniyaning har hil turlarini ko'zi ojiz insonlar bilan qanday ishlash, eshitishida nuqsoni bor insonlar bilan qanday mashg'ulotlar o'tkazish va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini to'g'irlashni o'rganamiz.


Asosiy qismi :Oligofreniya- bu aqliy zaiflik deb ham yuritiladi. Oligofreniya so'zining ma'nosi (oligo... va phren — akl), aqliy norasolik deb ataladi. Oligofreniya — tug'ma yoki 3 yoshgacha bo'lgan davrda orttirilgan ruhiy rivojlanmay qolish bilan kechadigan kasalliklar guruhi hisoblanadi. Bu nom nemis psixiatri E.Krepilin tomonidan berilgan. Ologofreniya ayollarga nisbatan erkaklar orasida ko'proq uchraydi. Ologofreniyaning oldingi turlari yengil — debillik, o'rtacha — imbetsillik va

og'ir idiotlik deb nomlanar edi . Hozirgi kunda aqli zaiflik F70 yengil F71 o'rta F72 og'ir F73 o'ta og'ir turlari deb yuritiladi. Oligofreniyaning sabablari xilma-xil. Bularga genetik-irsiy omillar, xromosomalarning buzilishi, ota-ona kasalliklari, ayniqsa, onaning homiladorlik vaqtidagi kasalliklari va zaharlanishlari, bolaning tug'ilish davridagi shikastlanishlari hamda bola tug'ilgandan keyin 3 yil ichida o'tkazgan og'ir kasalliklari (meningit, ensefalit) miyaning shikastlanishlari va boshqalar kiradi.

Oligofreniyaning asosiy belgisi ruhiy faoliyatning hamma tomonlama yetishmasligi, bilim va ko'nikmalarining yetuk emasligi, tafakkuri, fikrlash qobiliyatining chegaralanganligi yoki umuman yo'qligi ham kiradi . Dastlab bir sonni boshqasiga qo'shish kerak bo'lsa, bunda bolalar konkret predmetlarni ko'zda tutadilar. Keyinroq predmetlashgan sonlar o'rniga faqat quruq sonlarning o'zi qolaverishi mumkin bo'lib qoladi, ya'ni o'sha konkret narsalar, buyumlar (predmetlar) mavhumlashadi. Mana shu jarayonga ular tushunib yetmaydilar. Karra jadvalni yodlab olib aytib berish — konkret hodisadir, konkret xotira faoliyatidir. Biroq bu jadval ichida ayirish, qo'shish, bo'lish kabi amallarni bajarishda mavhumlashgan fikrlar zarur bo'ladiki, buni bajarishda aqli zaif bolalar juda qiynaladilar yoki butunlay bajara olmaydilar. Fikrlarni abstraksiya qilish qobiliyatining yo'qligini, so'zlarning ma'nosiga tushunib yetmaslik holatlarini ham ko'rish mumkin. Oligofreniyada so'z boyligi, so'zlash qobiliyati, hissiyotlar, harakatlar ham sayoz bo'ladi. Ko'pincha bunday insonlarda turli xil tug'ma nuqsonlar (anomaliyalar) kuzatiladi. Bularga muskullarning zaifligi (parez), bosh miya chanog'ining katta yoki kichikligi hamda qiyshiq bo'lishi, ko'z, quloq, burun, og'iz bo'shlig'i, qo'l-oyoq panjalari kamchiliklari yoki nuqsonlari va boshqalar kiradi. Kattaroq yoshga yetgan aqliy noraso insonlarda daydilik, ovqatlanish va jinsiy hislarning oshishiga ta'luqli xatti harakatlar, itoat etmaslik, qaysarlik yoki tajovvuskorlik belgilari kuzatiladi.

Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanadigan yo'nalish hisoblanadi . Surdopedagogikaga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o'qitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlantirish, o'quv fanlarini o'qitish, talaffuzni o'rgatish va "lab bilan o'qish", mehnatga o'rgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari kiradi. Surdapedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o'quv tarbiya muassasalarini tashkil etish tartib qoidalarini ishlab chiqadi. Fan asoslarini o'rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og'zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og'zaki nutqni o'rgatish uchun so'zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko'rsatiladi. Shu harakatlarga qarab zaif eshituvchilar tovush va so'zlarni ajratib olishga, ya'ni "labga qarab o'qishga" o'rganadi. Nutq harakatlarini takrorlashga o'rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, karlar maxsus o'quv alifbosi — daktildan foydalanib insonlar bilan muloqot qilishadi .

DAKTIL ALIFBOSI



Tiflopedagogika- bu ko'rishida nuqsoni bo'lgan insonlar hisoblanadi . Tiflopedagogika so'zining ma'nosi (yun. typhlos ko'r va pedagogika) degan ma'noni anglatadi . Defektologiyada ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi yo'nalishi bo'lib ,bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni o'rgatadi .Tiflopedagogika ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ta'limni takomillashtirish yo'llarini, o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish metodlarini , maxsus maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalar tuzilmasini, ularning ta'lim tarbiyasining tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Tiflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va uni rivojlantirish, ko'rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta'limning texnika vositalarini qo'llashdan iboratdir. Ko'r va zaif ko'ruvchi insonlarni ko'rmaganligi tufayli ularning boshqa analizatorlari judayam yaxshi ishlaydi . Masalan: (eshitish sezish tam bilish, hid bilish va teri taktil analizatorlari judayam yaxshi rivojlangan bo'ladi .

LOGOPEDIYA logos yunoncha paideia — tarbiyalash, o'qitish) nutqdagi kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, o'qish va yozuvdagi nuqsoni va boshqa sabablarni oldini olish, tuzatish yo'llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, va nutq nuqsonlarini o'rganadi.Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab 17-asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tadqiq etila boshladi. 19-asr ning 2-yarmidan bu sohaga mustaqil ravishda tibbiyot nuqtai nazaridan yondashilgan . Logopediya yo'nalishi nutq nuqsonlari va nutq kamchiliklarini to'g'irliyidigan fan hisoblanadi .Nutq kamchiligi logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan chetga chiqish deb ta'riflanadi. Nutq kamchiliklari quyidagilar bilan xarakterlanadi.

XULOSA : Maxsus pedagogika jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan hisoblanadi. Maxsus pedagogika fani 4 ta yo'nalishga bolinib , olifrenopedagogika, tiflopedagogika , surdopedagogika va logopediya yo'nalishlarini o'z ichiga oladi .Bu yo'nalishlarni barchasi birlashgan holda defektologiyani tashkil qiladi. Hozirgi kunda bu yo'nalishlarga bo'lgan talab va e'tibor kuchlidir. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan shug'illanish judayam murakkab ish hisoblanadi . Bu sohada maxsus pedagoglardan yetarlicha bilim va ko'nikma talab qilinadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Maxsus_pedagogika
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oligofreniya>
3. [surdopedagogika+nima&rlz=1C1YTUH_ruUZ1067UZ1067&oq=&aqs=chrome.1.69i59i450l8.1511j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://uz.wikipedia.org/wiki/surdopedagogika+nima&rlz=1C1YTUH_ruUZ1067UZ1067&oq=&aqs=chrome.1.69i59i450l8.1511j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8)
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Logopediya>